



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 12-avgust, № 163 (9334)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAYLIK!

NEFT-GAZ BOZORIDA BARQARORLIK TA'MINLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 11-avgust kuni neft-gaz bozorida barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga uglevodorod resurslarini uzluksiz yetkazib berish chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda sanoat quvvatlari kengayib, aholi ehtiyojlari ortib borayotgani tabiiy gaz va neft mahsulotlariga talabni oshirmoqda. Bunday sharoitda ichki bozorni zarur resurslar bilan barqaror ta'minlash, mavsumiy ehtiyojlarni oldindan hisobga olish va narxlarning asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyatga ega.

Taqdimotda neft va gaz qazib chiqarish, import qilish, qayta ishlash, zaxiralash hamda iste'molchilarga yetkazib berish holati ko'rib chiqildi. Tarmoqlar va hududlar ehtiyojini aniq hisob-kitob qilish, ichki talabni ustuvor ta'minlash va yetkazib berish jadvalariga qat'iy rioya etish zarurligi ta'kidlandi.

“O'zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyatida tabiiy gaz qazib chiqarish sur'atlarini barqaror saqlash, mavjud konlar imkoniyatidan samarali foydalanish va yangi quduqlarni o'z vaqtida ishga tushirish rejalashtirilgan. “Yangi Kultak”, “Niyoz”, “Qoratau”, “Marvarid” va “Tegirmon” konlaridagi ishlar hisobiga qo'shimcha 887 ming kub metr tabiiy gaz qazib chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Quduqlarni burg'ilashtirishdan tortib, ularni gaz uzatish tarmog'iga ulashgacha bo'lgan jarayonlarni kunlik nazoratga olish, elektr ta'minoti va ishlab chiqarish infratuzilmasining uzluksiz ishlashini ta'minlash muhimligi ta'kidlandi.

Neft va gazni qayta ishlash korxonalarini xomashyo bilan bir maromda ta'minlash, mavjud quvvatlardan samarali

foydalanish hamda ichki bozorda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Uglevodorod resurslarini hududlarga o'z vaqtida va yetarli hajmda yetkazib berish, zarur zaxiralarni oldindan shakllantirish hamda ishlab chiqaruvchi, tashuvchi va sotuvchi korxonalar faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Narxlar barqarorligini saqlash uchun bozorda yetarli taklifni ta'minlash, mahsulotlarni birja savdolariga talabdan kelib chiqib chiqarish, ishlab chiqarish va logistika xarajatlarini qisqartirish muhimligi ta'kidlandi. Resurslarni asossiz ushlab turish, sun'iy taqchillikni yuzaga keltirish va narxlarni oshirishga qaratilgan holatlarning oldini olish bo'yicha ta'sirchan nazorat o'rnatish topshirildi.

Ichki bozorda talab va taklif muvozanatini saqlash, uglevodorod resurslari ta'minotida uzilishlarga hamda narxlarning asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida “O'zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyatiga neft va gaz qazib chiqarish bo'yicha belgilangan prognoz ko'rsatkichlarini so'zsiz ta'minlash vazifasi qo'yildi. Suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmini yil yakuniga qadar rejadagi 520 ming tonna o'rni 606 ming tonnaga yetkazish topshirildi.

Mutasaddilarga ichki bozor ehtiyojini kunlik tahlil qilib borish, ta'minot bilan bog'liq xavflarni oldindan aniqlash va zarur choralarini o'z vaqtida ko'rish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

O'za.

SOG'LOM MILLAT – KUCHLI DAVLAT, FAROVON JAMIYAT DEMAK

Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yillik bayrami tobora yaqinlashib kelmoqda. Bosib o'tilgan tarixiy yo'lga eng muhim ijtimoiy soha – sog'liqni saqlash tizimi nuqtayi nazaridan nazar tashlar ekanmiz, millat salomatligi davlat xavfsizligi hamda iqtisodiy barqarorlikning bosh kafolati ekaniga yana bir bor amin bo'lamiz.

Oxirgi o'n yillikda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilgan inqilobiy islohotlar natijasida sohada “Inson qadri uchun” tamoyili to'liq qaror topdi. Tibbiy xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish va yuqori texnologiyali tibbiyotni rivojlantirish yo'lida asrlarga tatigulik islohotlar amalga oshirildi. Bugungi o'zbek tibbiyoti nafaqat kasallikni davolaydigan, balki tibbiy turizm markaziga aylanayotgan, murakkab transplantatsiya amaliyotlarini o'z hududimizda muvaffaqiyatli o'tkazayotgan yuqori texnologik tizimga aylandi. Zero, millat

Ko'z o'ngimizdagi o'zgarishlar

sog'lom bo'lsa – davlat kuchli, jamiyat esa farovon bo'ladi.



Xalqqa yaqinlashuv siyosati

Keyingi yillarda “Biz sog'liqni saqlashga sarflayotgan mablag'ni xarajat emas, balki inson kapitaliga kiritilayotgan eng oqilona investitsiya deb bilishimiz kerak”, degan g'oya sohadagi islohotlar poydevori bo'ldi. Shu nuqtayi nazardan, tibbiyotni “shifoxonadan – mahallaga va xonadonga” ko'chirish bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratildi.

QVPlar o'rni zamonaviy Oilaviy shifokor punktlari va Oilaviy poliklinikalar tashkil etildi. Har bir mahallada aholi salomatlik ko'rsatkichlari bo'yicha 4 ta xavf guruhiga bo'lindi. Yiliga millionlab fuqarolar mahallaning o'zida bepul skrining va tibbiy ko'rikdan o'tkazilmoqda.



TAFAKKUR VA TARIX TUTASHGAN NUQTA

Publitsistik asarlar ham xuddi odamlar kabi turlicha taqdirga ega bo'ladi. Ayrimlari o'qiladi va esdan chiqadi, ba'zilar esa ma'lum bir davrning hujjati bo'lib qoladi. Yana shunday kitoblari borki, ularni o'qiyotganda muallif bilan emas, o'zingiz bilan suhbatlashayotgandek bo'lasiz: kechagi kunni eslaysiz, bugunni baholaysiz va ertangi kun haqida o'ylaysiz.

Mutolaa

Siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning “MILLAT SHAVKATI” kitobi ana shunday mutolaaga undaydigan asarlar sirasiga kiradi. Kitobda turli vaqtlarda, turli voqealar munosabati bilan yozilgan bitiklarda o'zaro ichki mustaraklik – tafakkur izchilligi, davrga berilgan bir necha qirrali baho hamda tarixiy jarayonga turli nuqtalardan qarash imkoniyati yaqqol ko'rinadi.

Shu ma'noda, asarni muayyan yillar davomida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning publitsistik solnomasi, deb

ataash mumkin. Biroq bu solnoma quruq raqamlar, sanalar va voqealardan iborat emas. Unda inson bor. Unda millat taqdiri mujassam. Satrlar qatida tarixiy xotiralar jonlanadi. Eng muhimi, o'zgarishlarning inson ongi hamda ruhiyatidagi aks sadosi tasvirlanadi.

O'zgarishni ko'rish va uni anglash – boshga-boshga narsalar aslida. Bugun yangilikka ko'nikish nihoyatda tezlashgan davrda yashayapmiz. Kechagi g'ayrioddiy voqea bugun oddiy holdek qabul qilinadi. Kecha biz uchun tasavvur etish qiyin bo'lgan binolar, yo'llar, shaharlar, texnologiyalar, xalqaro munosabatlarda bugun hayotimizning bir qismiga aylanib ulgurmoqda. Kitobning tub mohiyati va ahamiyati ham, nazarimizda, ana shu nuqtada namoyon bo'ladi.

Muallif bizga “O'zgarishlar bo'lyapti” deyish bilan cheklanmaydi, “Bu o'zgarishlarni qanday anglayapmiz?” degan savolni o'rta qo'yadi. Bu ikki yondashuv orasida katta tafovut bor. Chunki binolarni, yo'llarni, yangidan-yangi shaharlar, korxonalar, maktablar hamda zamonaviy infratuzilmani ko'rish mumkin. Lekin odam tafakkuridagi o'zgarishni ko'rish uchun kuzatuvchanlik kerak. Jamiyat ruhiyatidagi o'zgarishni anglash uchun esa yanada kattaroq mushohada va salohiyat talab etiladi.

Qudratilla Rafiqov publitsistikasining o'ziga xosligi shundaki, u voqeaning tashqi ko'rinishi ortidan uning ma'naviy va ruhiy mohiyatini izlaydi. Masalan, shaharsozlik haqida gapirar ekan, masalani faqat bino hamda inshootlar bilan cheklamaydi.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

HAYOTIY ISLOHOTLAR VA TASHABBUSLAR ASOSI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda ayrim qonun hujjatlaridagi tushuncha va yuridik atamalarlarni bixillashtirishga, migratsiya sohasidagi qonunchilikni takomillashtirishga, narkotiklar, kuchli ta'sir qiluvchi moddalar va prekursorlar muomalasini, shuningdek, gijohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish yo'nalishini tartibga solishga, fuqarolarni yashash manzili va turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish tartibini soddalashtirishga qaratilgan qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi. Shuningdek, parlament nazorati faoliyatiga doir masalalar muhokama qilindi.

Qonun hujjatlaridagi ayrim atamalarning qo'llanishi takomillashtirilmoqda

Majlisda dastlab “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda norma ijodkorligi faoliyatini yanada takomillashtirish, qonunchilik hujjatlarini sodda va tushunarli tilda tayyorlash bo'yicha



tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mazkur jarayonlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu qonun loyihasida qonunchilik hujjatlarida foydalanilgan ayrim atamalarni yagona shaklda qo'llashni nazarda tutuvchi o'zgartirishlarni kiritish taklif etilmoqda. Xususan, “avans” so'zini “bo'nak”, “markirovka”ni “tamg'alash”, “marshrut”ni “yo'nalishli”, “svetofo”ni “yo'lchiroq”, “parol”ni “oron”, “progressiv” so'zini esa “ilgor” deb o'zgartirish nazarda tutilaypti.



IJTIMOIY HIMOYA VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK OMILI



Xususan, sohaning huquqiy va institutsional asoslari mustahkamlanib, qishloq xo'jaligida barqaror ishlab chiqarish tizimi shakllantirilmoqda, shuningdek, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Kecha Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi tomonidan “Barqaror rivojlanish maqsadlari oyli” doirasida o'tkazilgan “Oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror agrar taraqqiyot: ustuvor vazifalar va istiqbol” mavzuidagi seminar ham aynan shu masalalar muhokama qilindi.

Aytilganidek, global iqlim o'zgarishi, suv resurslarining tanqisligi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi, aholi sonining o'sishi va oziq-ovqat

So'nggi yillarda mamlakatimizda Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo'jaligining barqaror taraqqiyotiga ko'maklashishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Senat qo'mitasida

mahsulotlariga talabning ortishi agrar sohani yangi yondashuvlar asosida rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Seminarida oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat qishloq xo'jaligi, balki iqtisodiy barqarorlik, aholi farovonligi, ijtimoiy himoya va ekologik xavfsizlikning muhim omili sifatida alohida ahamiyatga egaligi qayd qilindi. Shuningdek, aholini sifatli hamda xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, qishloq xo'jaligining raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, sohada mavjud muammolarni muhokama etish va ularning yechimi bo'yicha amaliy takliflarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi.



**MUSTAQIL O'ZBEKISTON
TARAQQIYOT YO'LI:**
ISLOHOTLAR, NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR

OCHIQ MUHOKAMA UCHUN MUHIM MAYDON

O'zbekiston davlat mustaqilligining 35 yilligini mamlakat hayotining barcha jabhalarida kechayotgan chuqur yangilanishlar, davlat va jamiyat boshqaruvidagi sifat o'zgarishlari, inson qadri ta'minlashga qaratilgan chuqur islohotlar bilan kutib olmoqda. Ayniqsa, so'nggi o'n yillikda Prezidentimiz rahbarligida Yangi O'zbekiston g'oyasi asosida amalga oshirilayotgan keng ko'lami ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy o'zgarishlar mamlakat taraqqiyotining yuksalish bosqichini belgilab berdi.

Mazkur jarayonda inson huquq va erkinliklari, uning sha'ni, qadr-qimmat va farovonligini ta'minlash davlat siyosatining bosh mezoniga aylandi. “Inson – jamiyat – davlat” tamoyili asosida davlat institutlarining fuqarolar oldidagi mas'uliyatini kuchaytirish, jamiyat bilan ochiq muloqotni kengaytirish, qonun ustuvorligi hamda ijtimoiy adolati ta'minlashga qaratilgan yangi yondashuvlar qaror topmoqda.





HAYOTIY ISLOHOTLAR VA TASHABBUSLAR ASOSI



Majlisda qayd etilganidek, qonun loyihasining qabul qilinishi qonun hujjatlaridagi tushuncha va yuridik atamalarni birxillashtirishga hissa qo'shadi.

Qonun loyihasi uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Loyiha mas'ul qo'mitaga nega qaytarildi?

"Migratsiya sohasidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda muhokama qilindi. Ushbu qonun loyihasi bilan yashash manzili va turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazishga oid atama va tushunchalar barcha qonun hujjatlarida birxillashtirilmoqda. Jumladan, amaldagi qator kodeks va qonunlardagi "doimiy yashash joyi", "vaqtincha turgan joyi" kabi tushunchalar tegishli tarzda "yashash joyi" va "turgan joyi" tushunchalariga almashtirilmoqda.

Shuningdek, turizm va xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish maqsadida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni mehmonxonalar, motellar, turistik lagerlar, dam olish uylari va zonalar, sanatoriylar, davolash pansionatlari, davlat tasarrufidagi va xususiy klinikalar, shifoxonalar, kasalxonalarda turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish tartibini buzganlik uchun mansabdor shaxslarning mas'uliyati va javobgarligini oshirishga qaratilgan normalar kiritilmoqda.

Muhokamalar davomida qonun loyihasining 223-moddasi deputatlar o'rtasida jiddiy e'tiroz va qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Xususan, xalq vakillari mazkur moddada nazarda tutilgan ayrim ma'muriy javobgarlik choralariga alohida e'tibor qaratib, ular yuzasidan qator savol va mulohazalarni ilgari surishdi. Ko'tarilgan masalalar yuzasidan qonun tashabbuskorlari hamda O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi Saydullo Azimov atroficha tushuntirishlar berdi.

Deputatlar loyihadagi ayrim moddalarni qayta ko'rib chiqish, ularni mazmunan va huquqiy jihatdan yanada puxta ishlash zarurligini ta'kidlab, hujjat matnini takomillashtirishga qaratilgan qator muhim takliflarni ilgari surdi. Shundan kelib chiqib, qonun loyihasi mas'ul qo'mita tomonidan takomillashtiriladigan bo'ldi.

Narkotiklar va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar muomalasi ustidan nazorat kuchaytiriladi

Deputatlar tomonidan "Narkotiklar va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi. Ushbu hujjat bilan narkotiklar, kuchli ta'sir etuvchi moddalar va prekursorlar muomalasini, shuningdek, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish yo'nalishida davlat organlari va tashkilotlarining vakolatlari aniqlashtirilmoqda. Jumladan, bu idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasining Narkotiklar ustidan nazorat qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan amalga oshirilishi belgilanyapti.

Shuningdek, qo'llanilayotgan "narkotiklar", "narkojinoyat", "narkovaziyat", "giyohvandlikka qarshi kurashish", "narkojinoyatlarga qarshi kurashish", "g'ayriqonuniy narkolaboratoriya" kabi tushunchalarga huquqiy ta'riflar berish taklif etilmoqda.

Qonun loyihasida narkotiklar, kuchli ta'sirga ega moddalar va prekursorlar muomalasini nazorat qilish hamda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish yo'nalishida davlat organlari va tashkilotlarining vakolatlari aniqlashtirilmoqda. Jumladan, bu idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasining Narkotiklar ustidan nazorat qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan amalga oshirilishi belgilanyapti.

Hujjat bilan narkojinoyatlarining yangi, ayniqsa, internet tarmog'idagi usullariga qarshi kurashish, noqonuniy narkolaboratoriyalarni aniqlash va ularning faoliyatiga chek qo'yish, narkotiklarning noqonuniy muomalasi kanallarini bartaraf etish bo'yicha tezkor-qidiruv va boshqa choralarni amalga oshirish yuzasidan mas'ul davlat organlari va tashkilotlariga aniq vazifalar ham belgilanmoqda.

Shu bilan birga, narkotiklar va kuchli ta'sir etuvchi moddalar muomalasini nazorat qilish bilan bir qatorda profilaktika yo'nalishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, mas'ul davlat organlari va tashkilotlariga aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarda giyohvandlikka qarshi immunitetni shakllantirishga, ta'lim muassasalarida narkotiklar tarqalishining oldini olishga, narkologik yordam, profilaktika, diagnostika, davolash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan muhim vazifalar yuklatilmoqda.

Dildora KAMALOVA, Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:



– Mazkur qonun loyihasida narkojinoyatlarga qarshi kurashishda zamonaviy texnologiyalar va ilmiy yondashuvlardan foydalanishni rag'batlantirish, sohadagi ilmiy, amaliy va texnologik tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek,

narkojinoyatlar haqida xabar bergan yoki ularga qarshi kurashishga ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish va ularning shaxsiga doir ma'lumotlar sir saqlanishini kafolatlashga qaratilgan normalar ham o'z ifodasini topmoqda.

Loyihani ishlab chiqishda milliy qonunchilik bilan bir qatorda, xorijiy davlatlarning sohaga oid tajribasi o'rganilib, ulardagi maqbul mexanizmlar inobatga olindi. Uning qabul qilinishi narkotiklar va kuchli ta'sir etuvchi moddalar muomalasini samarali tartibga solish, giyohvandlik va narkojinoyatlarning oldini olish, aholi salomatligi muhofazasi hamda sohada davlat organlarining o'zaro hamkorligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Fuqarolarni yashash manzili va turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish tartibi soddalashtiriladi

Bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan – fuqarolarni yashash manzili va turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish tartibini soddalashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda fuqarolarning erkin harakatlanish, yashash joyini erkin tanlash bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, shuningdek, aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini soddalashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, fuqarolarni yashash manzili va turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazishga doir huquqni qo'llash amaliyotida ayrim huquqiy noaniqliklar hamda amaldagi cheklavlarni qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Ushbu hujjat aholini yashash manzili va turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini yanada soddalashtirish orqali fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini kengroq ta'minlashga qaratilgan.

Bu borada uchta muhim yangilik nazarda tutilmoqda. Xususan, oila a'zolari va yaqin qarindoshlari turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazishda uy-joy maydonining ijtimoiy normasini qo'llash bilan bog'liq cheklorlar bekor qilinmoqda. Ya'ni er-xotin, ota-ona va farzandlar, buvuvi va nevaralar, shuningdek, aka-uka va opa-singillar bir-birining uy-joyiga ro'yxatdan o'tayotganda xonadon maydoni belgilangan me'yordan kam bo'lsa ham, bu holat ro'yxatdan o'tishga to'siq bo'lmisligi nazarda tutilaypti. Bu esa oila a'zolari va yaqin qarindoshlarni bir manzilda ro'yxatdan o'tkazishni yengillashtirishga xizmat qiladi.

Loyihada talabalar turarjoylarida istiqomat qilayotgan talabalarga nisbatan alohida huquqiy mexanizm qo'llanilib, ularni ro'yxatdan o'tkazishda uy-joy maydonining ijtimoiy normasi qo'llanilmasligi ham belgilanmoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq mavjud amaliy muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Shuhrat YOQUBOV, Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi a'zosi:



– Bugungi kunda ipoteka krediti yoki subsidiya asosida uy sotib olgan ko'plab fuqarolar o'z uyida ro'yxatdan o'tishda qiyinchilikka duch kelmoqda. Bu esa ularga farzandlarini maktab yoki bog'chaga joylashtirish, poliklinika ga biriktirish, pensiya va boshqa ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda muammo tug'dirmoqda.

Qonun loyihasiga ko'ra, endilikda mulkdor va uning yaqin qarindoshlarini taqiy yoki xatlov qo'yilgan turarjoyda ro'yxatdan o'tkazishda garovga olish, taqiy qo'yish yoki bekor qilishga vakolatli organlar (bank, sud, MIB)ning roziligi talab etilmaydi. Bu tartib, avvalo, uy-joy mulkdori va uning oila a'zolarining o'z uyida qonuniy ro'yxatdan o'tishiga imkoniyat yaratadi.

Ayni vaqtda garovga oluvchi va davlat organlarining qonuniy manfaatlarini ta'minlash maqsadida ro'yxatdan o'tkazilayotgan shaxsning oldindan yozma roziligi instituti joriy etilmoqda. Ushbu mexanizmga ko'ra, garovga oluvchi yoki taqiy (xatlov) qo'ygan vakolatli organning murojaatiga asosan uning ro'yxatdan o'tkazilganligi bekor qilinishi mumkin bo'ladi. Mazkur huquqiy yechim, bir tomondan, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini, ikkinchi tomondan, kreditrlarning huquq va qonuniy manfaatlari ham yetarli darajada himoyalanihini ta'minlaydi.

Muhokamalar davomida deputatlar qonun loyihasining ahamiyati va zarurati haqida alohida to'xtalib, undagi ayrim normalar bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini, taklif va tavsiyalarini bildirdi. Ushbu hujjat aholiga ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini yanada sodd va qulay qilishga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ishonchli ta'minlashga hissa qo'shishini ta'kidlashdi.

Majlisda qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilindi.

Qizg'in bahslarga sabab masala

Deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgan navbatdagi masala – shaharsozlik sohasida qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlash, noqonuniy qurilishlarning oldini olishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda shaharsozlik sohasini tizimli isloh qilish, urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, qurilish ishlarini raqamlashtirish, bosh rejalar asosida hududlarni kompleks rivojlanirish hamda qurilish jarayonlari shaffofligini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu qonun loyihasi bilan Shaharsozlik kodeksi va "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonunga qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda.

Xususan, shaharsozlik talablarini qo'pol ravishda buzganlik, ya'ni noqonuniy qurilishlarni amalga oshirish, shuningdek, qurilish-montaj ishlarini bosh reja, master-reja va qurilish loyihasi talablarini buzgan holda bajarish, qonunchilik hujjatlarida belgilangan hajmdan katta bo'lgan imoratlar, bino va inshootlarni vakolatli organni xabardor etmasdan qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlarini uchun javobgarlik choralari kuchaytirilmoqda. Sohada Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlanirish milliy qo'mitasining shaharlarni kompleks rivojlanirish sohasidagi vakolatlari aniq belgilab qo'yilmoqda.

Muhokamalar davomida deputatlar tomonidan qonun loyihasidagi ayrim normalar bo'yicha aniqlashtiruvchi savollar, taklif va tavsiyalar berildi. Xususan, O'zbekiston "Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi Zuhridin Mavlonov hujjatda nazarda tutilgan ayrim moliyaviy sanksiyalar juda yuqori ekaniga e'tiroz bildirdi.

Zuhridin MAVLONOV, deputat:




– Shaharsozlik qoidalarini buzganlik uchun amalda ma'muriy javobgarlik belgilangan. Qonun loyihasida esa bundan tashqari, qo'shimcha moliyaviy sanksiyalar joriy etish taklif qilinmoqda. Noqonuniy qurilishlarga qarshi qat'iy chora ko'rish kerak. Biroq qo'llaniladigan jazo huquqbuzarlik darajasiga mutanosib bo'lishi zarur. Amaldagi qonunchilikda bunday holatlar uchun javobgarlik mavjud. Shu bois yirik miqdordagi qo'shimcha moliyaviy sanksiyalarni joriy etish va ularni sud qarorisiz undirish masalasini tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini inobatga olgan holda yana bir bor puxta ko'rib chiqish lozim.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Anvarxon Temirov uy-joy sohasidagi elektron platformaga ma'lumotlarni noto'g'ri kiritish yoki belgilangan ma'lumotlarni o'z vaqtida joylashtirmaslik holatlari uchun moliyaviy sanksiyalar joriy etish taklifiga alohida e'tibor qaratdi.

Majlisda qonun loyihasining qabul qilinishi shaharsozlik sohasining huquqiy asoslarini mustahkamlash, noqonuniy qurilishlarni qisqartirish, qurilish bozorida halol raqobat muhitini ta'minlash, yer va ko'chmas mulk resurslaridan samarali foydalanishga asos yaratishi ta'kidlandi.

Odiljon MAMADALIYEV, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi a'zosi:



– Qonun loyihasi qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lgani tabiiy hol. Chunki unda jamiyat manfaatlariga bevosita daxldor muhim masalalar o'rin olgan. Munozaralar jarayonida bildirilgan barcha fikr-mulohazalar, taklif va tavsiyalar loyihani yanada takomillashtirishga qaratilgan. Uning qabul qilinishi esa fuqarolarning ko'p kvartirali uylar qurilishiga yo'naltirilayotgan mablag'larini himoyalash hamda aholi uchun urbanizatsiya taymoyillari asosida xavfisiz va zamonaviy shahar muhitini shakllantirishga huquqiy zamin yaratadi.

Muhokamalar yakunida qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

San'at maktablarida ta'lim sifati va sharoitlar qanday?

Majlisda madaniyat vaziri O. Nazarbekovga "Bolalar musiqa, san'at va ixtisoslashtirilgan maktablaridagi ta'lim sifati oshirish, ularning zarur jihozlar bilan ta'minlanish holati to'g'risida"gi parlament so'rovini yuborish haqidagi masala ham ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, bolalar musiqa va san'at ta'limi tizimini takomillashtirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, deputatlar tomonidan hududlarda o'tkazilgan o'rganishlar hamda ta'lim muassasalari bo'yicha ma'lumotlar tahlili sohada hal etilishi lozim bo'lgan qator masalalar saqlanib qolayotganini ko'rsatmoqda.

Jumladan, Termiz, Farg'ona, Urganch, Samarqand, Navoiy shaharlaridagi ixtisoslashtirilgan san'at maktablari, Andijon shahridagi Sherali Jo'rayev nomidagi musiqa va san'at oliy maktabi, Toshkent shahridagi R. Glier nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan san'at maktabi hamda boshqa qator muassasalar binolari kapital ta'mirga muhtojligi aniqlandi.

Prezidentimizning 2020-yil 4-fevraldagi qarorida 2021/2022 o'quv yilidan Buxoro, Qarshi, Namangan va Urganch shaharlarida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi huzurida ixtisoslashtirilgan boshlang'ich raqs san'ati maktab-internatlarini tashkil etish vazifasi belgilanganiga qaramay mazkur vazifa to'liq bajarilmagan. Shuningdek, Buxoro ixtisoslashtirilgan san'at maktabi uchun

Buxoro shahridagi "Bunyodkor" MFY hududidan bir gektar yer maydoni ajratilgan va 43 mlrd. so'mlik loyiha-smeta hujjatlari tayyorlangan bo'lsa-da, mablag' yo'naltirilmagani sababli qurilish ishlarini boshlanmagan.

Ba'zi musiqa va san'at ta'lim muassasalarida o'quvchilar soni binolarning loyiha quvvatidan yuqori ekani o'quv muhitini yaratish imkoniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayrim musiqa va san'at maktablarida mashg'ulot xonalarining akustik holati talab darajasida emasligi, maxsus sinf xonalarining va konsert zalalarining yetishmasligi muammosi mavjud.

Majlisda yuqoridagilardan kelib chiqib, san'at ta'limi muassasalarini zarur jihozlar va o'quv-uslubiy vositalar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish, o'quv sifati va kadrlar salohiyatini oshirish, pedagoglarning malakasini boyitish va ularni attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish hamda maktab-internatlarni tarbiyachilar bilan ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirishlar berish haqida madaniyat vaziriga parlament so'rovi yuborildi.

Parlament so'roviga javob ko'rib chiqildi

Deputatlar Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi A. Abduhakimovning "2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi parlament so'roviga javobini ko'rib chiqdi.

Unda qayd etilishicha, konsepsiya ijrosini ta'minlash maqsadida ta'lim muassasalari, mahallalar, davlat idoralari va fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda tabiatni



asrab-avaylash va ekologik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan mavzular va amaliy mashg'ulotlar o'tish kengaytirildi.

Tarbiyalanuvchilarning qo'l mehnati buyumlari, chizmalar va tabiiy materiallardan tayyorlangan ijodiy ishlar asosida "Ekologik burchaklar", "Ekologik yo'lakchalar" tashkil etildi. Ularda olib borilayotgan mashg'ulotlar, kuzatuv ishlar va sayrlar davomida tarbiyalanuvchilarga atrof-muhit, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida dastlabki tushunchalar berish tizimi yo'lga qo'yildi. Ekologik ta'lim-tarbiyani shakllantirishga qaratilgan tadbirlar bilan esa 7000 ga yaqin maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi 1,6 mln. nafardan ortiq tarbiyalanuvchilar qamrab olindi.

Yurtimizdagi 10 mingdan ortiq maktab o'quvchilari o'rtasida ekologik ta'lim-tarbiyani tubdan mustahkamlash va ekologik madaniyatni yuksaltirish maqsadida "Tabiatni asrashda mening hissam" turkumidagi tadbirlar tashkil etildi. Mazkur tashabbus doirasidagi amaliy va targ'ibot tadbirlariga esa 1 mln. 650 ming nafarga yaqin o'quvchilar jalb qilindi.

2025/2026 o'quv yili uchun tegishli kasbiy ta'lim yo'nalishlariga mos kasblarda Amaliy ekologiya, Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, Ekologiya huquqi va boshqaruv, Alohida muhofaza qilnadigan tabiiy hududlar ekologiyasi fanlari joriy etilgan. Shuningdek, 200 tadan ortiq oliy ta'lim muassasalari talabalarini ixtiyoriylik asosida birlashtiruvchi "O'zbekiston ekovolontyori talabalar harakati" tuzilgan.

Kasbiy va oliy ta'lim muassasalarida "Yashil qahramon", "Yashil makon", "O'zbekiston ekovolontyori talabalar harakati" kabi loyihalar amalga oshirilib, ekologik madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan yangi tashabbuslar yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, 4500 dan ziyod mahallalarda "Mahallani chiqindidan xoli hududga aylantiramiz" mavzuida aksiyalar, ekologiyaga oid qonun hujjatlari mazmun-mohiyatini yetkazishga oid targ'ibot tadbirlari, qonun hujjatlarining har qanday buzilishiga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan tashviqot tadbirlari o'tkazilgan.

Parlament so'roviga javobda aholi o'rtasida ekologik madaniyatni keng targ'ib qilish, davlat xizmatchilari va mutaxassislar malakasini oshirish, xalqaro ekologik tadbirlar va ko'rgazmalarni tashkil etish, mahallalarda ekologik targ'ibot ishlarini kuchaytirish hamda ekologik qonunchilik ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham ma'lumot berilgan.

Majlisda deputatlar tomonidan konsepsiyada belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishishni jadallashtirish, targ'ibot-tashviqot ishlarini yangi zamonaviy usullar asosida uddalash, aholining ekologik madaniyatini oshirish yo'nalishida davlat organlari hamda mas'ul tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish yuzasidan taklif va tavsiyalar bildirildi.

Mazkur konsepsiyada 2030-yilgacha aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha belgilangan vazifalardan kelib chiqib, uning ijrosi parlamentning doimiy nazoratida bo'lishi qayd etildi.

Majlisda parlament so'roviga javobda ko'tarilgan masalalar bo'yicha atroflicha ma'lumotlar berilgani ta'kidlanib, qo'mita raisining javobi ma'lumot uchun qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

"Bitiruvchi – 2026"

MAS'ULIYATLI DAVR OSTONASIDAGI YOSHLAR

Poytaxtimizdagi O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyida bo'lib o'tgan Xalqaro Nordik universitetining "Bitiruvchi – 2026" tantanali marosimida kasbiy salohiyat va mehnat ishtiyoqi yuqori bitiruvchilar katta hayotga yo'l olishdi. Bu anjuman 2 200 nafardan ortiq bakalavriat hamda magistratura bitiruvchilari uchun yangi va mas'uliyatli davr boshlanayotganining ramziy ifodasi bo'ldi.



Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim siyosatining markazida aynan inson, uning bilim va salohiyati, munosib kasb egallashi hamda jamiyatda faol pozitsiyaga ega bo'lishi masalasi turibdi. Yurtimiz oliy ta'lim muassasalaridagi kabi Xalqaro Nordik universitetidagi bitiruv marosimi ham ana shu jarayonning kichik, ammo mazmunli ko'rinishi sifatida namoyon bo'ldi.

Tantanali marosimda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirliklari vakillari, universitet rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafogulov o'z tabriklarida zamonaviy dunyoda haqiqiy muvaffaqiyat uzluksiz ta'lim, innovatsion fikrlash, kasbiy kompetensiya va xalqaro tajriba bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidladi. Bu fikr bugungi mehnat bozori talabalaridan kelib chiqadigan muhim haqiqatni anglatadi. Chunki biror kasbni egallab, shu bilim bilan butun mehnat faoliyati davomida yashash davri ortda qolmoqda. Texnologiyalar, kasblar, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish shakllari tez o'zgarayotgan bir paytda mutaxassisdan o'qishni tugatish emas, "o'qishni davom ettirish" qobiliyati talab etiladi.

Shuning uchun ham bitiruvchi uchun diplom yangi bilimlar, yangi kasbiy tajriba va yangi imkoniyatlar sari yo'l ochadigan hujjatdir.

Tadbir davomida "Graduation Ceremony – 2026"da bakalavriat va magistraturani muvaffaqiyatli tamomlagan yoshlarning mehnatlari e'tirof etildi. Ular orasida ta'lim, iqtisodiyot, moliya, IT, jurnalistika, psixologiya, pedagogika, turizm va boshqa yo'nalishlarda bilim olgan yoshlar bor. Har bir diplom ortida bir necha yillik mehnat, imtihonlar, izlanishlar, kechki tayyorgarliklar, ilmiy ishlar, amaliy mashg'ulotlar va albatta, ota-onalar hamda ustozlarning ishonchi turibdi.

Bitiruvchilar bilan cheklangan suhbatlarda ham aynan shu jihat sezildi: universitet yillari ular uchun faqat auditoriyadagi mashg'ulotlardan iborat bo'lmagan. Talabalik davrida talabalar qonun loyihalarida ishtirok etish, yangi muhitda o'zini sinab ko'rish, jamoa bilan ishlash, turli tadbir va tashabbuslarda faol bo'lish, ilmiy izlanish olib borish – bularning barchasi yoshlarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyasini shakllantiruvchi muhim omillardir.

Diplom topshirish jarayonida bitiruvchilar sahnaga chiqqan paytda ularning yuzidagi quvonch ortida ota-onalarning ham hayajoni sezilib turdi. Chunki oliy ma'lumot olish faqat talababning emas, butun oilaning uzoq muvaffaqiyatli mehnati va ishonchini talab qiladigan jarayon. Shu sababli bitiruv marosimi ota-onalar uchun ham farzandining katta hayotga qadam qo'yayotganini ko'rish imkonini bergan unutilmas kun bo'ldi.

Professor-o'qituvchilar uchun esa bu – o'z shogirdlarining mustaqil baxti sari o'tlanayotganini ko'rib hayati. Universitetdagi yillar davomida talabalar ko'plab fanlarni o'rgandi. Ayniqsa, ustozlardan olingan mas'uliyat hissi, vaqtini qadrlash, xatlardan xulosa chiqarish, izlanish va halol mehnat qilish ko'nikmalari bitiruvchining keyingi hayotida ham hamroh bo'ladi. Shu bois universitet bitiruvchilari bilan birga ustozlarning mehnatlari ham e'tirof etildi.

Tantanali marosimning badiiy qismi ham davraga alohida ruh bag'ishladi. Taniqli xonandalarning chiqishlari bitiruvchilarning bayram kayfiyatini yanada oshirdi. Universitet madhiyasining barcha ishtirokchilar tomonidan birgalikda ijro etilishi, qizg'in mushakbozlik marosimning eng yorqin lahzalaridan biriga aylandi.

"Xalq so'zi".

Soliq qo'mitasi tomonidan xarid cheklarini smartfon yordamida soddalashtirilgan shaklda ko'rish imkoniyati yaratildi.



TAFAKKUR VA TARIX TUTASHGAN NUQTA



Samarqandning bugungi qiyofasi haqida yoza turib, uning tarixiy xotirasi va sivilizatsion maqomiga murojaat qiladi. Samarqandni obodonlashtirish uning tarixiy shavkatini tiklash bilan bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Demak, muallif uchun obodonlik – maqsadning o'zi emas. U – o'zlikni tiklashning tashqi belgisi.

Bir kitob, bir savol

Asarning mohiyatiga nazar tashlasak, bunyodkorlik va shaharsozlikni, davlat rahbarining xalq bilan muloqotini va milliy o'zlik, tarixiy xotira, Markaziy Osiyo munosabatlari, davlatchilik yoki dunyoda O'zbekistonga nisbatan o'zgargan munosabatlarni ko'ramiz.

Bir qarashda ularni bir-biridan uzoq mavzular, deb o'ylash mumkin. Ammo kitobni o'qiganda, ularning tubida bitta katta savol borligi seziladi: “Yangi O'zbekiston” deganda biz nimani tushunamiz?

Mazkur savolga javob faqat yangi binolar yoki iqtisodiy ko'rsatkichlardan izlanmaydi. Muallifning talqinida “Yangi O'zbekiston”, avvalo, insonning o'zini boshqacha his qilishi, o'z mamlakatiga, tarixiga, davlatiga hamda o'z kelajagiga boshqacha munosabatda bo'lishi bilan bog'liq jarayondir.

Muallifning qarashlarida davlat rahbarining obrazi islohotlardan ajralgan tarzda emas, bir butun holda namoyon bo'ladi. Kitobning umumiy g'oyasi aynan shu yo'sinda talqin qilingan: islohotlar insonning qadr-qimmatini, turmushi va kelajakka ishonchida namoyon bo'lishi kerak.

Bu yerda muhim bir jihat bor. Siyosiy publitsistikada rahbar haqida yozish – faqat uning faoliyatini sanab berish emas. Rahbar shaxsi orqali davrning o'ziga nazar tashlash hamdir. Muallif aynan shu usulni tanlaydi. Kitobda mamlakatimiz yetakchisining turli yillarda aytgan fikrlari, turli hududlardagi faoliyati, fidoyiligi, odamlar bilan muloqoti va mamlakat hayotidagi o'zgarishlarga munosabatiga murojaat qilinadi.

Muallif uchun bunday misollar shunchaki illyustratsiya emas. Ular orqali rahbar shaxsining shakllanish jarayoni ochib beriladi. Ya'ni bugungi siyosatchini faqat hozirgi lavozimi bilan emas, kechagi hayot yo'li bilan ham tushunish mumkin, degan fikr ilgari suriladi. Bu nuqtayi nazarni kitobning sarlavhasi ham kuchaytiradi.

“MILLAT SHAHKATI” – bir qarashda ikki tushunchaning uyg'unlashuvidek tuyuladi. Bir tomonda – millatning shavkati, uning tarixiy qudrati, shah'ni va obro'si. Ikkinchi tomonda esa davlat rahbarining shaxsiyati.

Rasmiy matbuotda kitob sarlavhasining shu ko'p qirrali ma'nosiga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas: uni “millatning shavkati yoki “millatning shavkatli o'g'li” tarzida talqin qilish mumkinligi qayd etilgan. Sarlavhaning o'zidayoq kitobning konseptual kaliti yashiringan, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Milliy g'urur – balandparvoz shior emas

Tarixiy asarda e'tiborni tortadigan yana bir yo'nalish – milliy g'urur masalasi. Bu mavzu bugun juda muhim. Chunki globallashuv davrida o'zlikni saqlash bilan dunyoga ochiq bo'lish o'rtasida muvozanat topish har qanday mamlakat uchun oson emas. O'zligini unutgan jamiyatning o'z taraqqiyot strategiyasi bo'lishi qiyin.

Dunyodan uzilib qolgan jamiyat zamonaviy taraqqiyotda o'z o'rnini topa olmaydi. Shu bois milliy g'ururni o'tmish bilan faxrlanishning o'zigagina tenglashtirish noto'g'ri bo'lar edi. Haqiqiy milliy g'urur – tarixni bilish, bugunni qadrlash va kelajak uchun mas'uliyatni his qilish.

Kitobni o'qiganda yana bir jihat ko'zga tashlanadi: muallif kechagi kunni bugungi kunning muqobili sifatida emas, balki uni anglash uchun zarur bo'lgan tajriba sifatida ko'radi. Bu juda muhim yondashuv. Zero, inson xotirasi g'alati: qiyinchiliklar unutiladi, qulayliklar esa tezda odatga aylanadi. Kecha navbatda turib hal qilingan ish bugun elektron xizmat orqali bir necha daqiqada bitsa, uning qadriini his etmay qo'yishimiz mumkin.

Kecha xoriyga chiqish, valyuta ayirboshlash, tadbirkorlik, axborot olish yoki davlat

idorasi bilan muloqotdagi ayrim to'siqlar oddiy hayotning “tabiiy” qismiday qabul qilingan bo'lsa, bugun ularning bartaraf etilishi ham tezda odatiy holga aylandi. Aslida esa jamiyatdagi har bir o'zgarish ortida muayyan siyosiy qaror, institutsional islohot, odamlarning mehnati va katta mas'uliyat yotadi.

“MILLAT SHAHKATI” atrofida keyingi oylarda e'lon qilingan tahliiliy materiallarda ham aynan shu jihatga urg'u berilmoqda: inson kechagi qiyinchiliklarni tez unutib, bugungi qulayliklarga tez ko'nikadi.

Aslida, jamiyatga tanqid ham kerak, e'tirof ham. Ammo e'tirofsiz tanqid – norozilikka, tanqidsiz e'tirof esa xotirjamlikka aylanib qolishi mumkin. Publitsistikaning vazifasi esa, ehtimol, ana shu ikki qutb o'rtasida sog'lom fikr maydonini yaratishdir.

Muallifning sodda va ravon yozish mahorati ko'p tilga olinadi. Bu haqiqat. Lekin masalaning yana bir muhim tomoni bor: sodda yozish – sodda fikrlash degani emas. Aksincha, murakkab fikrni oddiy tilda tushuntira olishning o'zi muayyan intellektual tayyorgarlikni talab qiladi. Kitobda siyosiy, tarixiy va geosiyosiy masalalarning o'quvchiga og'irlik qilmaydigan uslubda bayon etilishi shu jihatdan ahamiyatli.

Asarda muallif Markaziy Osiyo munosabatlari, Turkiy davlatlar tashkiloti, milliy o'zlik, tarixiy xotira kabi jiddiy mavzularni tushunarli va o'qishli uslubda yoritishga alohida ahamiyat qaratgan. Shu yerda kitobning yana bir qimmatli jihati namoyon bo'ladi. U faqat siyosat ishqibozlari uchun emas, mamlakatimizda kechayotgan jarayonlarni tushunishni istagan har qanday o'quvchi uchun qiziqarli asar vazifasini o'taydi.

“Asarda muallif Markaziy Osiyo munosabatlari, Turkiy davlatlar tashkiloti, milliy o'zlik, tarixiy xotira kabi jiddiy mavzularni tushunarli va o'qishli uslubda yoritishga alohida ahamiyat qaratgan. Shu yerda kitobning yana bir qimmatli jihati namoyon bo'ladi. U faqat siyosat ishqibozlari uchun emas, mamlakatimizda kechayotgan jarayonlarni tushunishni istagan har qanday o'quvchi uchun qiziqarli asar vazifasini o'taydi.”

Bugungi o'zgarishlarning davomchisi kim?

Kitobni o'qib, beixtiyor bir savol tug'iladi. Ko'sh, bugungi o'zgarishlarning davomchisi kim?

Javob, nazarimizda, faqat davlat yoki davlat rahbari emas, jamiyatning o'zi. Islohotlarning umri qonunlar, qarorlar va dasturlar bilan cheklanib qolmaydi. Ular odamlarning ongiga kirib borgandagina barqaror natija beradi. Yangi maktab qurish mumkin, ammo yangi fikrlaydigan avlodni tarbiyalash – undan ko'ra murakkabroq vazifa. Yangi shahar barpo etish mumkin. Yangi shahar madaniyatini shakllantirish – boshqa masala. Yangi qonun qabul qilish mumkin, ammo qonunga hurmatini insonning ichki ehtiyojiga aylantirish – yanada katta vazifa.

Shu ma'noda, asardagi eng katta g'oyalardan biri bunyodkorlikdan tafakkurga, tafakkurdan mas'uliyatga, mas'uliyatdan esa milliy yuksalishga o'tish zaruratidir. Bu jarayonda davlat rahbari, davlat institutlari, ziyolilar, ommaviy axborot vositalari va nihoyat, har bir fuqaroning o'z o'rnini bor.

Tarix kitob emas – mas'uliyat. Kitobda Samarqand, Amir Temur, milliy ramzlar, O'zbekistonning dunyodagi obro'si kabi mavzularning bir-biriga uyg'un yoritilishi bejiz emas. Chunki millat o'zligini faqat o'tmishidan emas, o'tmishiga bugun qanday munosabatda bo'layotganidan ham anglaydi.

Shu nuqtayi nazaridan, asardagi tarixga murojaatni o'tmish bilan faxrlanishning o'zi, deb tushunish kamlik qiladi. Bu tarixiy xotirani bugungi taraqqiyotning ma'naviy kapitaliga aylantirishga urinish. Asar mohiyati ham aynan shundan – o'zining kimligini anglashdan, tarixini bilish va bugungi imkoniyatlarini qadrlash, ertangi kun oldidagi mas'uliyatini his qilishdan boshlanadi, desak, ayni haqiqat.

To'liq ESHNAZAROV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SOG'LOM MILLAT – KUCHLI DAVLAT, FAROVON JAMIYAT DEMAK



Eski avtoulavlar bosqichma-bosqich zamon talablariga mos, barcha reanimatsion uskunalar bilan jihozlangan – “Hyunda”, “Ford”, “Toyota” va “Volkswagen” rusumli reanimobillarga almashtirildi.

Onalik va bolalarni muhofaza qilishga qaratilgan tizimli kompleks dasturlar amalga oshirildi. Respublikamizning barcha hududida zamonaviy skining markazlari tashkil etildi. Homilador ayollar va bolalarni bepul polivitaminlar, yod va foliy kislotasi mahsulotlari bilan ta'minlash yo'lga qo'yildi. Natijada so'nggi yillarda go'daklar o'limi ko'rsatkichi har mingtaga nisbatan 7-8 tagacha, onalar o'limi esa 13-14 tagacha keskin pasaydi. Bu Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlari orasida eng yaxshi ko'rsatkichdir.

Prezidentimizning qat'iy siyosiy irodasi tufayli Yangi O'zbekistonda ilgari imkonsiz bo'lgan organ transplantatsiyasi – buyrak, jigar va ilik ko'chirish qonuniy hamda to'liq amaliy yo'lga qo'yildi. Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va viloyatlardagi markazlarda hozirgacha yuzlab buyrak hamda jigar ko'chirib o'tkazish amaliyotlari muvaffaqiyatli bajarildi. Murakkab kardiokirurgiya (ochiq yurakdagi operatsiyalar) va onkologik davolash jarayonlari endilikda faqat Toshkentda emas, balki deyarli barcha hududlarda uddalanmoqda.

Respublikada faoliyat yuritayotgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari filiallarining mamlakatimiz hududlarida ochilishi mutaxassislarning joylarda murakkab jarrohlik amaliyotlarini bajarishi uchun sharoitlar yaratadi. Bugun hatto tuman shifoxonalarida ham angiografiya, mammografiya, viloyat markazlarida tomirlarni stentlash operatsiyalarining bajarilishi oddiy kunlik amaliyotga aylandi, qisqacha aytganda, tibbiyot xizmatlari aholiga yaqinlashtirildi. Dunyoda noyob hisoblanadigan operatsiyalar ham bajarilmoqda. Masalan, Siam egizaklarini ajratish, eshitishi tug'ma zaif bolalarga koxlear implantatsiya amaliyotlari bugungi kunda ko'plab farzandlarning to'liq nogironlikdan xalos bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Salomatlik kafolati

Sog'liqni saqlash tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va korrupsiyaga chek qo'yish maqsadida tizimli islohotlar olib borildi. Sirdaryo viloyatida pilot loyiha sifatida muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazilgan Davlat tibbiy sug'urta tizimi respublika bo'ylab bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bemorlarga bepul ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar va dori vositalarining kafolatlangan paketi hayotga tatbiq qilindi. Davlat byudjeti mablag'lari endilikda “muassasani saqlash uchun” emas, balki ular davolagan har bir bemor uchun to'lab berilmoqda. Bu muassasalar o'rtasida sog'lom raqobatni yuzaga keltirdi.

Endilikda davlat tomonidan qaysi tibbiy xizmatlar va dori-darmonlar bepul berilishi aniq va shaffof belgilab qo'yildi. Bemor o'ziga nima bepul va qaysi xizmat pullik ekanini aniq biladi. Oilaviy shifokor tomonidan yozib berilgan surunkali kasalliklar bo'yicha retsept asosida



dirixonalardan zarur dorilarni bepul (davlat hisobidan) oladi.

Sug'urta tizimi aholiga nafaqat davlat shifoxonasiga, balki sug'urta tizimiga ulangan xususiy klinikalarga ham bepul (davlat sug'urtasi hisobidan) murojaat qilish imkonini beradi. Bemor tuman, viloyat yoki respublika shifoxonasiga borish uchun “order” yoki tanish-bilish qidirib yurmaydi. Oilaviy shifokor yo'llanmasi kifoya – sug'urta xarajatini qoplaydi. Ilgari shifoxonalarga pul “koyka-kun” (o'rin-joy) yoki binoni saqlab turish uchun ajratilgan bo'lsa, endi mablag' bevosita davolangan bemor soni va ko'rsatilgan xizmat sifatiga qarab to'lab beriladi. Tibbiy xizmatlar narxi va xarajatlari Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi tomonidan to'liq va shaffof qoplab berilgani sababli bemorlardan norasmiy pul talab qilish omili keskin kamayadi. Barcha jarayonlar “E-Sog'liqni saqlash” va elektron retsept tizimlari orqali o'tgani bois “soxta bemorlar” yoki soxta retseptlar orqali byudjet pullarini o'zlashtirish imkonsiz bo'ladi.

Shifokorning maoshi endi necha



“stavka”da ishlashiga emas, balki u davolagan bemorlar soni, amalga oshirgan murakkab operatsiyalari va xizmat sifatiga bog'liq. Yaxshi ishlaydigan, bilimli shifokor bir necha barobar ko'proq maosh oladi. Davlat byudjetidan tibbiyotga ajratilayotgan trillionlab so'mlar havoqa uchib ketmaydi, balki aynan bemorni davolash uchun manzilli sarflanadi. Bemor og'ir ahvolda tushib, uni qimmat operatsiya qilishdan ko'ra, har bir kasallikni oilaviy poliklinika darajasida barvaqt aniqlab, davolash sug'urta tizimi uchun ham, davlat uchun ham ancha arzonaga tushadi. Demak, yangi tizim kasalliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, davlat tibbiy sug'urtasi har bir fuqaroga davlat tomonidan beriladigan salomatlik kafolatidir. Mazkur tizim orqali kam ta'minlangan oila ham, oddiy fuqaro ham qimmatbaho operatsiya yoki murakkab davolanish uchun uy-joyini sotishga majbur bo'lmaydi. Tibbiyot sohasida shaffoqlik, adolat va yuqori sifat qaror topadi.

Yana bir ta'kid shuki, bemorlarning tibbiy tarixi (ambulator xaritasi) raqamlashtirildi. Shifokorlarning qog'ozbozlik ishlari kamaytirilib, asosiy e'tibor bemorga qaratildi. Dori-darmonlarning elektron bazasi orqali shifoxonalarda dorilarning “g'oyib bo'lishi” va soxta retseptlar yozilishining oldi olinmoqda.

Islohotlarning yangi bosqichi

So'nggi yillarda ushbu strategik sohaga e'tibor va yondashuv tubdan o'zgardi. Buning yaqqol amaliy ifodasi sifatida Davlat byudjetidan tibbiyot sohasiga ajratilayotgan mablag'lar hajmi 6 karra oshirilganini ta'kidlash lozim.

Mablag'larning keskin ko'paytirilishi sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamon talablariga mos infratuzilma yaratish va kadrlar salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ilgari faqat poytaxtdagi markaziy klinikalarda ko'rsatilgan 400 dan ziyod yuqori texnologik tibbiy xizmatlar hozirda viloyat va tuman markazlarining o'zida muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Bu aholining vaqti va mablag'i tejalisiga, ortiqcha ovoragarchiliklarning oldi olinishiga olib keldi.

Xalqaro ilg'or tajribalar asosida qisqa muddatda hududlarda 490 ta tibbiyot muassasasi qayta tashkil etildi. Natijada aholiga manzilli va tezkor xizmat ko'rsatuvchi, yuridik maqomga ega 350 ta mustaqil oilaviy poliklinika faoliyati yo'lga qo'yildi. Amalga oshirilgan tizimli chora-tadbirlarning eng muhim va xolis

“Raqamli sog'liqni saqlash” markazi ochilib, “DMED” yagona elektron axborot platformasi ishga tushirildi.

Sog'liqni saqlash tizimida davlat va xususiy sektor o'rtasida sog'lom raqobat muhiti yaratilgani xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. O'tgan 10 yil davomida mamlakatimizda xususiy klinikalar soni 3,5 mingtadan 9 mingtaga, ular tomonidan ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat turlari esa 50 tadan qariyb 130 taga yetdi.

Mahalliy farmatsevtika bozorida milliy mahsulotlar ulushi keskin ortdi. 2017-yildan buyon mahalliy ishlab chiqarish hajmi 1,4 trillion so'mdan 6,3 trillion so'mga o'sdi. Eksport ko'rsatkichlari esa 40 barobardan ziyod ortib, 6,3 million dollardan 250 million dollarga yetdi.

Tibbiy ta'lim

transformatsiyasi

Sifati tibbiyotning poydevori yuqori malakali va zamonaviy bilimga ega kadrlardir. Shu sababli tibbiy ta'limni transformatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mavjud uchta oliy o'quv yurti negizida Toshkent davlat tibbiyot universiteti tashkil

etildi. Shuningdek, Urganch davlat tibbiyot instituti faoliyati yo'lga qo'yildi. Toshkent davlat tibbiyot universiteti dunyoning eng nufuzli “Times Higher Education” (THE) reytingidan joy oldi. Bugungi kunda oliygohda dunyoning 32 ta mamlakatdan 3,5 ming xorijiy talaba ta'lim olmoqda, qolaversa, yil sayin O'zbekistonda ta'lim olish istagini bildirayotgan talabalar soni keskin ortmoqda.

Mamlakatimizdagi 8 ta tibbiyot oliy ta'lim muassasasi xalqaro akkreditatsiyadan

muvaffaqiyatli o'tdi. Birgina 2025-yilning o'zida 300 nafarga yaqin mahalliy mutaxassislar rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi klinikalarida o'z bilim va malakasini oshirib qaytdi.

Sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan ushbu keng qamrovli va fundamental islohotlarning eng oliy va mujassamlashgan natijasi aholimizning turmush sifati yaxshilanib, o'rtaacha umr ko'rish darajasi 73,8 yoshdan 75,1 yoshga uzayganida namoyon bo'lmoqda. Inson umrining uzayishi – davlatning sog'liqni saqlash, tinchlik, ijtimoiy himoya va farovonlik sohasida olib borayotgan to'g'ri va oqilona siyosatining bebaho mevasidir. Bu tarixiy muvaffaqiyatlar ortida kechayu kunduz o'z kasbi va xizmat vazifasiga sodiq holda mehnat qilayotgan, xalq salomatligi posboni bo'lgan zahmatkash shifokor va tibbiyot xodimlarining munosib hissasi yotibdi.

Shuhrat BOYMURODOV,

Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori, tibbiyot fanlari doktori, professor.

EKSPORTBOP QOVUN VA FITOSANITARIYA

Mirzacho'l vohasi qovunlari Yevropaning turli mamlakatlarda dunyoning eng yaxshi poliz mahsulotlari qatorida sotilmoqda. Bunda, albatta, xorijiy bozorlar talablariga mos qovunlar yetishtirishga alohida e'tibor qaratilayotgani muhim omillardan biri bo'lmoqda.

Imkoniyat

E'tirof etish lozimki, bu borada Sirdaryo viloyati O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasining fitosanitar nazorati inspektorlari tomonidan olib borilayotgan ishlar ham yuqori samara bermokda.

– Qovunlarni eksportbop qilib yetishtirish ularning navi va urug'ini tanlashdan boshlanadi, – deydi boshqarmaning tashqi karantin bo'yicha bosh mutaxassisi Arslon Ergashev. – Ayni masalada ham mutaxassislarimiz tomonidan dehqonlarga

amaliy yordam, tavsiyalar berib kelinyapti, bevosita poliz o'simliklari ekilishi mo'ljallangan maydonlarda va so'ngra ekin parvarishi davrida fitosanitar nazorati tashkil etilyapti. Shu asnoda fitosanitar nazorati davlat inspektorlari yetishtirilayotgan qovun mahsulotlarida uchraydigan zararkunanda hasharot va kasalliklarga qarshi kurashish bo'yicha dehqon va fermerlarga o'z vaqtida keng ko'lamda tavsiyalar beradi. Bu esa dehqonning kutilgan hosil – eksportbop qovunlar

yetishtirishiga katta ko'mak bo'ladi.

Ma'lum qilinishicha, Sirdaryo viloyati O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasining fitosanitar nazorati inspektorlari tomonidan joriy yilning o'tgan yetti oyi davomida viloyatda yetishtirilayotgan qovunlar uchun 97 ta ichki fitosanitariya sertifikatini berildi. Natijada 1780



tonnadan ziyod qovunlar turli xorijiy mamlakatlarga eksport qilindi.

Ahmadali SHERNAZAROV (“Xalq so'zi”).

O'zbekiston Turizm qo'mitasi va Toshkent viloyati hokimligi hamkorligida joriy yilning 21-22-avgust kunlari Parkent tumanining Zarkent qishlog'ida “Uzum sayli” festivali o'tkaziladi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 12 170 nusxada bosildi. Hajmi – 2 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir A. Alikulov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 20.45 Topshirildi – 23.40

1 2 3 4 5 6